

SOG'LIK-SALOMATLIKKA DAXLDOR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH YO'LLARI

Ibragimova L.A.¹

Annotatsiya:

Tarjima xususida gap borar ekan, bir tildan ikkinchi tilga alohida so'zlarni, so'z birikmalarini, butun bir asarni tarjima qilish nazarda tutiladi. Tarjima bir-biriga oilaviy jihatdan o'zaro yaqin tillardan bo'lishi yoki bir-biridan farq qiluvchi til guruhlari o'rtasida bo'lishi mumkin. Tarjima teng ma'nolilik (muqobilik)ni taqozo qiladi, boshqacha qilib aytganda, amalga oshirilgan tarjima asliyatga mazmun jihatdan muvofiq bo'lishi lozim. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammosi sanaladi.

Kalit so'zlar: Shaklan muvofiqlik, mazmunan muvofiqlik, adekvat tarjima, funksional ma'nolilik, muqobil variant.

Hozirgi davrda tarjimaning teng ma'nolilik yoki asliyatga muvofiqlik tushunchasi haqida har xil qarashlar mavjud. Quyidagilar ana shu qarashlarga misol bo'la oladi:

Shaklan muvofiqlik tushunchasi. Tarjima tarixi tarjimaning teng ma'nolikka asoslanganini allaqachon tasdiqlagan. 60-yillargacha tarjimada teng ma'nolilik muammosi haqida bayon qilingan qarashlarni quyidagicha izohlash mumkin: asliyatdagi hamma narsani so'zma-so'z, harfma-harf o'girish shart degan fikr hukmron edi. Iloji boricha asliyat matnini shaklan o'girish talab etilardi. Asliyatning faqat to'g'ridan to'g'ri qayta yaratib bo'lmaydigan joylarigina o'zgartirilar, almashtirilar yoki bo'lmasa matndan tushib qoldirilar edi. Diniy muqaddas kitoblarni tarjima qilishga to'g'ri kelganda, ularni "Ollohning so'zlari" deb aniq va so'zma-so'z tarjima qilinar edi. So'zma-so'z tarjima kitobxonni tarjima asarini o'qishdan bezdiradi va qiziqishni so'ndiradi.

Mazmunan muvofiqlik tushunchasi. Tarjimaning ushbu yo'nalishi "hijjalab", ya'ni so'zma-so'z tarjima qilish usuliga qarshi bo'lgan edi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari quyidagi ikki talabga rioya qilgan holda tarjimani amalga oshirganlar.

1. Asliyat matnining barcha muhim elementlarini tarjima qilish.
2. Tarjima qilinayotgan til normalariga amal qilgan holda o'girish.

Shu ikki holatga amal qilib tarjima qilinsa, mazmunga muvofiqlik, ya'ni tarjima matnining ikki muhim xususiyati shakl va mazmun muvofiqlikka erishish mumkin, degan xulosa qilinardi. Mazmunan muvofiqlik konsepsiyasi tarjima tafakkuri taraqqiyotida olg'a bosilgan qadam edi. Uning qoidalariga amal qilgan holda amalga oshirilgan tarjimalar ancha mazmunli bo'lib kitobxonlarni o'ziga jalb qilgan edi. Ammo mazmunan muvofiqlik tushunchasini nazariy jihatdan mukammal tarjima deb bo'lmaydi.

Mukammal (adekvat) tarjima tushunchasi. Adekvat tarjima tushunchasining mualliflari bo'lgan A.B.Fedorov va Y.I.Retsker tarjimani aniq hikoya qilib berish deb tushunmaslikka da'vat etganlar. Tarjima ham, hikoya ham agar ular saviyali amalga oshirilgan bo'lsa, tarjima qilingan til norma qoidalariga muvofiqdir. A.B.Fedorov va Y.I.Retskerlarning fikricha, mukammal tarjima deganda asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima-adekvat tarjimadir. Misol tariqasida quyidagi maqollarning tarjimasiga e'tibor beraylik:

O'zbek tilida:-Kasallik kelsa shayton ham so'pi bo'ladi.

Ingliz tilida:-Devil was sick, When the/the devil a monk would be.

O'zbek tilida:-Rohatingga yegin, me'yorida ichgin.

Ingliz tilida:-Eat at pleasure, drink by measure

O'zbek tilida:-Sog' tanda sog'lom aql.

Ingliz tilida:- Healthy mind in a healthy body.

Dinamik (funktional) teng ma'nolilik tushunchasi. Tarjimada funksional teng ma'nolilik tushunchasi amerikalik olim Yudnin Nayda tomonidan fanga kiritildi. Funksional teng ma'nolilik

¹ Ibragimova Lola Asatullo qizi, SamDCHTI Ikkinchi chet tillar kafedrası o'qituvchisi

asliyat tilini qiyosiy jihatdan o'rganganda aniqlanishi mumkin. Nayda asl nusxa matnini o'qigan kishi bilan tarjima matnini o'qigan kishining nechog'lik ta'sirlanganligini taqqoslashni taklif qiladi. Agar ana shu ta'sirlanishlar o'xshashlik natijasi bo'lsa demak tarjimon maqsadiga erishgan bo'ladi. Asardagi sifatlar muqobil bo'lsa, demak, muqobillik asosidagi tarjimaga erishilgan bo'ladi. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki, etnolingvistik va milliy madaniy tafovutlar tufayli aynanlikka erishib bo'lmazligi mumkin. Shuning uchun ham bu kabi masalalar frazeologiyada ham alohida izlanishlarni talab qilmoqda. "Tarjima-chinakam san'atdir. Tarjima san'ati asliyatni aynan takrorlash san'ati emas. Bu umuman nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham umuman mumkin bo'lmagan ish. Tarjima san'ati-qayta yaratish san'atidir. Qayta yaratilgan narsa asliga aynan o'xshamaydi, agar aynan o'xshasa, u qayta yaratilgan bo'lmazdan, balki ko'chirma bo'ladi. Ko'chirma esa-san'at emas, balki takroridir. San'atda takror bo'lmaydi". Tarjima qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad asl nusxani egallash, saqlash va kitobxonga yetkazishdan iborat bo'lmog'i kerak. Tarjima jarayoni ijodiy jarayondir. Tarjimashunos olimlardan biri G'aybullar Salomov tarjima jarayonini 3 bosqichga ajratib tahlil etadi. Bu jarayonlarga quyidagilarni kirgizish mumkin:

1. Asl nusxani idrok etish;
2. Asl nusxa interpretatsiyasi;
3. Asl nusxani qayta ifodalash.

1. Asl nusxani idrok etishda matn so'zma-so'z idrok etiladi. Mazkur bosqichda tarjimon oldida ba'zi bir qiyinchiliklar turadi. Bulardan matnni noto'g'ri o'zlashtirish, yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish, matnda ishlatilgan ayrim xos so'zlarning ma'nosiga tushunmasliklar kiradi.

2. Ikkinchi bosqichda tarjimon muallif tomonidan ishlatilgan uslubiy omillarga e'tibor qilishi nazarda tutiladi.

3. Uchinchi bosqichda tarjimon muallif tomonidan yaratilgan badiiy voqelikni to'raligicha idrok etishi kerak. Agar tarjimon haqiqiy san'atkor bo'lsa, asarda ishtirok etuvchilarning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini, tilini, to'raligicha idrok etib, keng mushohada yuritadi. Frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to'rt xil yo'l bilan tarjima qilinadi. Bu usullar quyidagilardir:

1. Mos ekvivalentlar yordamida
2. Muqobil variantlar yordamida
3. Kalkalash orqali
4. Tasvirlash orqali

Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish. Turli xalqlar frazeologik birliklarining bir-birlariga har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Chunki frazeologizmlar ham boshqa til vositalari singari turli-tuman umuminsoniy fikr bayon qilish me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga kelgan hisoblanadi. Natijada turli tillar barqaror so'z birikmalari bir xil obrazli asosdan iborat bo'lib qoladilar. Masalan, "Laughter is the best medicine" iborasi ingliz tilida "kulgu umr uzaytiradi" sifatida tarjima qilinishi mumkin.

2. Muqobil variantlar yordamida tarjima qilish. Tarjima tilida asliyatda qo'llanigan frazeologik birlikka mos ekvivalent topilmagan taqdirda, adekvatlik ko'p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o'zaro muqobillik munosabatida bo'ladi. Muqobil variantlar tarjimada bir-birlarini bemalol to'ldiradilar. Chunki ularning boshqa tilga tarjimasi jarayonida milliy xususiyatli so'zlar yo'q. Shuning uchun ham ma'no o'zgarmay qolaveradi.

Gohida ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos muqobil variantlarning tayanch komponentlarigina bir-birlarinikiga o'xshash bo'lib, boshqa so'zlari farq qiladi. Bunday o'zaro muqobil frazeologik birliklar odatda bir xil voqea hodisa, harakat-holat, xislat-xususiyatning obrazli yoki his-hayajonli ifodasi uchun yaratilgan bo'lib, bir-birlariga to'la mos keladilar.

Inglizcha "Agues come on horseback but go away on foot," frazeologik birligining ham, uning o'zbekcha "Oq'riq joyini topsa, Olti oy qishlaydi" muqobil variantining ham tayanch komponentlari ega bo'lib, ikkalasi ham bir xil vaziyatni ya'ni oq'riq yoki kasallikning obrazli ifodalasa, tayanch komponentlari shoshgan (hasty) so'zidan iborat "an apple a day keeps the

doctor away" va "bir anor ming dardga da'vo" maqollarining ikkalasida ham bir xil xususiyat-ma'lum bir mevaning foydasi haqidagi targ'ibot ilgari suriladi. O'zlarining frazeologik ma'nolariga ko'ra o'xshash, grammatik qurilish jihatlariga nisbatan o'zaro yaqin ko'pchilik muqobil variantlar leksik tarkib tomondan bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalminaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Karomatova K.M, Karomatov X.S. Proverbs. Maqollar. Poslovisy-Toshkent Mehnat, 2000.-400b
- [2]. Саломов, F. Таржима назариясига кириш. Тошкент: «Ўқитувчи» нашриёт, 1978. 104 б.
- [3]. Федоров, А. Б. Введение в теорию перевода. 2-е изд., Москва: Высшая школа, 2002.
- [4]. Рецкер, Ю. И. Основы перевода. Москва: Прогресс, 1981.
- [5]. [www.EnglishIdiom](http://www.EnglishIdiom.com) & Proverbs.com